

Sevimli jonivoringiz bilan sayohat qiling

2022 13 Aprel

Agar siz sevimli jonivoringiz bilan sayohat qilishga qaror qilsangiz, Uzbekistan Airways bu haqida aviachipta xarid qilish vaqtida ko'rsatilishi shartligini eslatib o'tadi.

Aeroportda me'yoridan ortiq yuk sifatida qo'shimcha haq tolagan holda, sevimli jonivoringizni bemalol o'zingiz bilan sayohatga olib ketishingiz mumkin.

Havo kemasi salonida konteyner bilan birga vazni 8 kg dan oshmaydigan mayda jonivorlarni olib ketishingiz mumkin. Aks holda, jonivor yuk bo'linmasida olib ketiladi.

Jonivorlar bilan sayohat qilish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxatini oldindan veterinarlardan yoki +998 71 215 64 56 telefon raqami orqali bilib oling.